4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

# TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH

**Yuldasheva F.**

*Ilmiy rahbar:*

*O’zDJTU katta o’qituvchisi*

**Bozorova Mohira Nazirjonovna**

*O’zDJTU talabasi*

**Mohiraxon Nazirjonovna Bozorova**

*O’zbekiston Resublikasi Davlat Jahon tillari universiteti talabasi, Tel: +998940143831. E.mail:mohiraxon2003@.com*

**Annotasiya:** *Maqolada maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish tizimi jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib talabalarga va o‘quvchilarga bilim berish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirgan holatda hozirda mavjud bo‘lgan texnologiyalarni qo‘llash va bu texnologiyalarga nisbatan ularni bilimini oshirish hamda bu masala bo‘yicha hamda yangi usullarni o‘rgatish kabi muhim masalalar ko‘riladi. Bu masalalarni hal qilishda olib borilgan tajribalar natijasiga binoan ularni o‘quv jarayoniga tadbiq etish va uchraydigan muammolarga yechim ifodalangan.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются такие важные вопросы, как обучение студентов и школьников инновационным технологиям в процессе обучения в школах и высших учебных заведениях, использование существующих технологий при ознакомлении их с новыми технологиями, повышение их знаний об этих технологиях, обучение новым методам в данном внимание. По результатам экспериментов, проведенных при решении этих вопросов, высказаны их применение к образовательному процессу и пути решения возникших проблем.*

**Annotation:** *The article deals with important issues such as teaching students and pupils using innovative technologies in the process of education in schools and higher educational institutions, using existing technologies when introducing them to new technologies, increasing their knowledge about these technologies, and teaching new methods in this regard. According to the results of the experiments conducted in solving these issues, their application to the educational process and solutions to the encountered problems are expressed.*

**Tayanch so‘zlar:** *Texnologiyalar, video, youglish sayti, quiz.com sayti, metodika, fanlar, o‘qitish tizimi, kompyuter multimedia, zamonaviy texnologiyalar, audio*

**Ключевые слова:** *ехнологии, видео, сайт Youglish, сайт quiz.com, методика, предметы, система обучения, компьютерный мультимедиа, современные технологии, аудио*

**Key words:** *Technologies, video, Youglish site, quiz.com site, methodology, subjects, teaching system, computer multimedia, modern technologies, audio*

Ilmiy texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamonaviy axborot vositalarining ko'payishi va ta'lim tizimlariga kirib borishi, ulardan amalda foydalanish dars samaradorlini oshirishi shubhasizdir. Innovatsiya – yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni ifodalaydi. Texnologiya esa innovatsion texnologiyada ta'lim- tarbiya shakllarining metodlari va usullariga yangicha yondashish ma'nolarini anglatadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim tizimida talaba va o'qituvchi faoliyatiga yangilik va o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodikalardan foydalanishni taqazo etadi. Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror, hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Har bir fan jarayonida hozirda dunyo tanigan har qanday saytlar yoki onlayn ilovalardan dars jarayonida bemalol muammosiz foydalanish uchun talabada ham o'qituvchida ham bu soha bo'yicha bilim va ko'nikmalar bo'lishi lozim. Ya'ni innovatsion texnologiyalarni o'zi bilan dars mazmunli va samarali bo'lib qolmaydi, pedagog buni darsga to'g'ri tatbiq qilib bergandagina foydasi ko'rinadi. Misol uchun youglish.com saytidan foydalangan talabaga ingliz tilidagi har bir so'zlarni sinonimi, antonimi va bundan tashqari haqiqiy ingliz odamalari bu so'zni qanday talaffuz qilishi va qaysi holatlarda ko'p ishlatilishini ham ko'rsatib beradi. Bu sayt haqida yo'nalish bergan har bir pedagog talabani o'z darsiga qaysidir tomonlama qiziqtirgan bo'ladi. Quiz.com saytidan esa darslarni qiziqarliroq va yodda qolarli o'tkazish maqsadida foydalanish mumkin. Bundan tashqari innovatsion texnologiyalar deganda video, audio, multimedialarni ham tushunamiz. Turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlashicha yangilik rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi. Ammo o'qituvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay bo'ladi, masalan g'oyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi bunga yaqqol misol bo'ladi. Shunday qilib tuzilgan ushbu dasturlarning qulaylik tomoni shundaki, darsni tushunish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini e'tiborga olib, darsni oson va tushunarli usulda namoyish etish, har qanday fan bo'yicha rasm va videolarni katta ekranda yorqin ko'rsatish imkonini beradi. Bu dars o'tish jarayonlari ham o'qituvchini ham o'quvchini ham darsga bo'lgan qiziqishini va mas'uliyatini oshiradi va darsnni sifatini sezilarli darajada oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq. 1997.
2. Ibragimova G.N Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari va talabalarning kreativlik qobilyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. -T. : "Fan va texnologiyalari", 2016. 77-b
3. Panifilova A.P Innovatsion pedagogik texnologiylar: Fao o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik A.P. Panilov. – M., Akademiya, 2009 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
5. Турахaнов, А. А., & Тожибоев, М. Т. (2020). История возникновения и развития стрелкового спорта. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(5), 276-279.